

ISSN:2181-0427

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



**2019 йил 12 сон**

## **GRAMMATIK KO'RSATKICHLARNING O'ZLASHTIRILISHIDA ANIQLIK DARAJASI**

**(O'zbek Tilini O'rganayotgan Koreyslar Misolida)**

Saidaxmedova Odinaxon Ibroximjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** Maqolada Tabiiy tartib gipotezasi o'zbek tili uchun tekshirilgan. O'zbek tilini chet tili sifatida o'rganayotgan 11 ta koreyslar bilan tajriba o'tkazilgan. Tajriba ishtirokchilaridan berilgan savollarga javob berish so'ralgan. Olingan natijadan o'zbek tilida grammatik qo'shimchalarning aniqlik darajasi tartibi aniqlangan.*

***Kalit so'zlar:** til o'rganish, til o'zlashtirish, Tabiiy tartib gipotezasi, tajriba, respondentlar, aniqlik tartibi*

## **ТОЧНОСТЬ В РАЗРАБОТКЕ ГРАММАТИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ (В КАЧЕСТВЕ ПРИМЕРА КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКА ИЗУЧАЮЩИЕ УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК)**

Саидахмедова Одинахон Иброхимжан кизи

Докторант Ташкентского государственного университета

Узбекский язык и литература имени Алишера Навои

***Аннотация.** В статье отражен результат эксперимента с 11 корейскими излучателями узбекского языка как иностранный, для проверки порядка гипотез естественного порядка. Участникам эксперимента было предложено ответить на вопросы которые требуют специальная морфема. В результате был определен порядок точности грамматических морфем на узбекском языке.*

***Ключевые слова:** изучение языка, овладение языком, гипотеза естественного порядка, эксперимент, респонденты, порядок точности.*

## **ACCURACY IN DESIGNING GRAMMATIC INDICATORS (IN THE EXAMPLE OF KOREAN LEARNERS OF UZBEK)**

Saidakhmedova Odinaxon Ibrohimjon qizi

Postgraduate student of Tashkent state university of

Uzbek language and literature named after Alisher Navoi

***Annotation.** This article depicts the outcomes of the experiment carried with 11 Korean learners of Uzbek as a second language to test Natural Order Hypothesis in the Uzbek language. The participants were asked to answer the questions which demand the specific morphemes. The findings serve as the frame of morpheme accuracy order in the Uzbek language.*

***Key words:** language learning, language acquisition, Natural Order Hypothesis, experiment, respondents, accuracy order*

Grammatika ona tili hamda chet tilini o'zlashtirishda eng qiziq masalalardan biridir. Chet tilini o'qitish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar egallangan til kompetensiyasini chet tilini o'rganayotgan respondentlar orqali baholaydilar. Chet tilini o'zlashtirish ta'limdagi asosiy masala–chet tili grammatikasi o'zlashtirilishi rivojining muvofiq “tasviri”ni chizish hamda chet tili strukturasi qanday o'zlashtirilishini tekshirishdir. Shu maqsadda tadqiqotchi S.Krashen Tabiiy tartib gipotezasini bu sohaga olib kirdi.

**Tabiiy tartib gipotezasi**–grammatik shakllarning tizimli tartibda o'zlashtirilishi bo'lib, ona tilini o'zlashtirishda muayyan qo'shimcha boshqa qo'shimchalarga qaraganda avvalroq o'zlashtiriladi. Ona tilida grammatik shakllarning o'zlashish tartibini aniqlash bo'yicha dastlabki tadqiqot R.Brounga tegishi. U ingliz tili ona tilisi bo'lgan 3 ta bolani kuzatdi hamda har uchala bolada ham grammatik shakllarning o'zlashtirilish tartibining bir xil ekanligini kuzatish va turli metodlar yordamida aniqladi. Unga ko'ra, ingliz tilidagi hozirgi zamon qo'shimchasi–*ing* ko'pli qo'shimchasi–*s* va fe'ning umumzamon qo'shimchasi–*s* ga qaraganda avvalroq o'zlashtiriladi [1].

Ona tilini o'zlashtirishda morfema tartibining aniqlanishi chet tilini o'zlashtirish sohasidagi tadqiqotlarga katta ta'sir ko'rsatdi. X.S.Dulay va M.K.Burt tabiiy tartib masalasi xuddi ona tilini o'zlashtirgandek chet tilini o'rganishga ham taalluqli ekanini ta'kidlashdi [2]. Ular 60 ta ispan tili ona tilisi hamda 55 ta xitoy tili ona tilisi bo'lgan bolalarda ingliz tilini chet tili qay tartibda o'zlashtirilishini rasmlar hamda berilgan savollarga javoblar orqali aniqladilar. Tadqiqotlarning muhim jihati ingliz tilida morfemalar o'zlashtirilishining tartibi mavjudligi, bu tartiblar R.Broun aniqlagan morfemalar o'zlashtirish bilan o'xshash ekanligi aniqlandi. Tilni chet tili sifatida o'zlashtirishda ma'lum tartibning mavjudligi haqidagi xulosalar tadqiqotchilarni shu sohada tajribalar o'tkazishga undadi. Xususan, S.Krashen ham ingliz tilni chet tili sifatida o'rganayotgan 66 ta respondent bilan ularning og'zaki produksiyasini rasm va gapda tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni so'rash orqali tekshiradi. Ingliz tilisi ona tili sifatida o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan qo'shimchalar uni chet tili sifatida o'zlashtirishda ham qiyinchilik tug'dirishi haqida yozadi.

O'zbek tilini o'rganayotgan koreys respondentlarining talab etilgan kontekstda morfemalardan yanglish foydalanishi yoki morfemalardan foydalanmasligining aniqlanishi o'zbek tilini chet tili sifatida o'qitilishining qiyin jihatlarining aniqlanishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, morfemalarning o'zlashtirilishini tadqiq qilish, nafaqat, o'qitish uchun material tayyorlanishiga, qolaversa, o'zbek tilini o'rganayotgan koreyslarga tilning strukturalari hamda pragmatikasi haqida ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Tajriba Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti O'zbek tili markazida o'tkazildi. Unda 11 ta koreys millatiga mansub respondentlar qatnashdi. Tajriba ular O'zbek tili markazida ikki oy o'zbek tilini intensiv tarzda o'qigandan keyin olindi.

O'zbek tilida morfemalarning aniqlik tartibini aniqlash maqsadida koreys respondentlaridan belgilangan mavzular haqida gapirish so'raldi. Belgilangan mavzular respondentlar uchun kundalik–ular har kuni duch kelishi mumkin bo'lgan holatda

tanlandi. Berilgan javoblar tadqiqotchi (O.Saidaxmedova) tomonidan yozib olindi. Unga ko'ra, respondentlardan quyidagi javoblar yozib olindi va tahlil qilindi.

**1-respondent. Toshkent shahri**

*Toshkent shahri O'zbekiston. Toshkent shahri. Odamlari ko'p. Koreyalik, o'zbekistonlik do'stlik xitoy, yapon. Men..men. Mening volontyorlari 26-marti Toshkent keladi. Toshkenti bino kam. Toshkenti Amir Temur metro, kino, market, universitet. Men o'zbek universitetida Toshkenti...Toshkentdan, Navoiy universitetdan o'quvchi. Men volontyorman. Mening volontyorlari shanba Toshkentdan kino ko'radi. Toshkentdan metro bilet 1200. Bilet bitta ko'p..ko'p shahri tugadi. Shahri keladim. Oybek, Navoiy va bilmayman.*

Berilgan javobda ko'plik qo'shimchasi-lar, ismni kesimga xoslovchi –man qo'shimchalari to'g'ri qo'llangan,–ning qaratqich kelishi bir o'rinda qo'llanmagan, ikki o'rinda xato qo'llangan, –da o'rin-payt kelishigi uch o'rinda ishlatilmagan, ikki o'rinda chiqish kelishigi –dan qo'shimchasi –da ning o'rnida ishlatilgan. Egalik qo'shimchasi –i bir o'rinda ortiqcha, –ga jo'nalish kelishigidan umaman foydalanilmagan. O'tgan zamon –di qo'shimchasi o'rnida ham hozirgi-kelasi zamon qo'shimchalaridan foydalanilgan.

**2-respondent. Mening ish kunim**

*Koreyadan odatda men 9da uyg'onadi...uyg'ondi. Keyin 10 daqiqa kafe ichdim. Keyin yuvinadi. Keyin soat 10 da ishda bo'ladi. 10 soatda kofe ichdim. 13 da 6 soatgacha kompyuterni ko'radim, ko'rgandim. Keyin ishi tugadim. Keyin men kafedan yedim osh. Koreyadan. Hozir men O'zbekistonda yashayman. Odatda men 8 soatda uyg'onadi. Hozir dars ko'p. 9 soatda 6 soatdan darsi bo'ldi.*

Bir o'rinda –da qo'shimchasi o'rniga –dan qo'shimchasi ishlatilgan, qolgan vaqt bilan bog'liq so'zlarda –da qo'shimchasi to'g'ri qo'llangan. –ni tushun kelishigi bir o'rinda qo'llangan, keyingi o'rinda tushirilgan. Respondentning zamon va shaxs-son qo'shimchalarini o'zlashtirishida qiyinchilik kuzatildi. *edi* fe'li bilan bog'liq barcha o'rinlarda –di qo'shimchasidan foydalanilgan. Qolaversa, I shaxs shaxs-son –m o'rnida III shaxs –di qo'shimchasidan foydalanilgan.

**3-respondent. Men sevgan bayram**

*Mening...men sevgan bayram Chuso. Chuso sabzavotlari, mevalari.....qilmoqchi, qilmoqdim. Mening oilam televizor ko'rmiz, ko'rsat. Subhat...bobom, otam, onam. Minnatdormiz. Quyosh. Chuso 11 kun. 5 ta avgust.*

Berilgan javobda –lar, –m egalik qo'shimchalari to'g'ri qo'llangan.–ning qo'shimchasidan bir o'rinda noto'g'ri foydalanilgan. Fe'ldagi hozir-kelasi zamon qo'shimchasi –a tashlab ketilgan.

**4-respondent. O'zbekiston**

*O'zbekistonda bitta Qoraqalpoq Respublikasi va 12 shaharda bor. O'zbekiston shahar 10 ta: Toshkent, Samarqand, Buxara, Xiva juda qadimiy shaharlar. Men 3 haftadan oldin Samarqandga borib keldim. Samarqand shahri juda chiroyli va qadimiy. Men Samarqandga Afrosiyob poyezdida bordim. Hozir O'zbekiston juda ..... o'rinda. Toshkentda qadimiy bino va zamonaviy binolari bor. Toshkentning ko'chada juda keng va chiroyli. Daraxt ko'p va bog' ko'p. O'zbekiston Markaziy Osiyoda Sharq yulduzi. Men O'zbekistonni yaxshi ko'raman. O'zbekistonni metro bekati juda chiroyli va katta.*

Respondent bergan javobda qo'shimchalardan o'rinli foydalanganini kuzatdik. Bir o'rinda *-da, -dan, -i*, qo'shimchalari ortiqcha qo'llangan. Bir o'rinda *-ning* qo'shimchasi qo'llanmagan, bir o'rinda shu qo'shimchani o'rnida *-ni* qo'shimchasi qo'llangan. Ikki o'rinda *-lar, -i* qo'shimchalari tushirib qoldirilgan.

**5-respondent. Dam olish kuni**

*Biz dam olish kunida tog'ga boradim. Men yakshanba koreys churchi (ibodatxona)ga boradim. Men uyga ishlaydim. Men dam olishni xohlayman. Men market boradim. Bog'ga yuradim.*

Respondent berilgan mavzuga Koreyadagi dam olish kunini qanday o'tkazishi haqida aytdi. Fe'l tarkibida hozirgi-kelasi zamon hamda o'tgan zamon birgalikda qo'llangan. *Edi* fe'li o'rnida *-di* qo'shimchasidan foydalanilgan. *-da* qo'shimchasidan bir o'rinda to'g'ri qo'llangan, bir o'rinda tushirib qoldirilgan, bir o'rinda shu kelishikning o'rnida *-ga* kelishigidan foydalanilgan. *-ga* kelishigi bir o'rinda tushirilgan.

**6-respondent. Mening oilam**

*Mening oilam 3 kishidan iborat. Men va onam va akam. Akam 31 yoshda. Mening onam 55 yoshda. Mening akam kasbi sushi oshpaz. Chunki mening onamda sushi restoran bor edi. Men ham 2 yil sushi pishi..... o'rgandim. Hozir mening onam ishchi. Men aniq bilmayman o'zbek tilida so'z. Uy sotib olish uchun yordamchi. Men aniq so'z bilmayman. Men hozir O'zbekistonda yashayman.*

Respondent bergan javobda barcha qo'shimchalar to'g'ri qo'llangan. Ikki o'rinda *-ni* tushum kelishigi tushirib qoldirilgan.

**7-respondent. O'zbekiston Respublikasi**

*O'zbekistonga 2 yil bordim. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda joylashgan. Uning poy....ti Toshkent shahri. Davlat tili – o'zbek tilidir. Aholi 27 millondan ortiq. O'zbekiston Qorqalpog'iston Respublikasi va viloyatdan iborat. O'zbekiston yaxshi bo'lishga qadimiy juda. Ovqatdir.*

Respondent javob berishda yodlangan gaplardan foydalandi. Birinchi gapda *avval* ko'makchisi tushirib qoldirilgan va fe'l noto'g'ri qo'llangan. Oxirgi gap esa noto'g'ri tuzilgan.

**8-respondent. Men sevgan fasl**

*Men sevgan fasl bahor. Chunki u mening ustozning ismi ham. Bahor yozdan salqinroq va qishdan issiqroq. Bahorda mevalar ko'p emas, lekin mening sevimli qulupnaylar ko'p yo'ldan chiqdilar va qimmat emas. Bahorda chivinlar kam, lekin kapalaklar ko'p. Men kapalaklar yaxshi ko'raman. Bahorda temperatura baland emas, past emas. Koreyada martda va aprelda ko'p-ko'p pushti gullar daraxtlardan chiqadilar. Shuning uchun ko'p-ko'p odamlar sevgilari bilan gullarning pastida yuradilar. Lekin menda sevimli yo'q. Shuning uchun men O'zbekistonda xursandman.*

Respondentning javobida deyarli barcha qo'shimchalar to'g'ri qo'llangan. Ikki o'rinda *-im* egalik qo'shimchasi, bir o'rinda *-ni* tushirib qoldirilgan.

**9-respondent. O'zbekistonning qadimiy shaharlari**

*O'zbekistonda Samarqand, Xiva, Buhara, Fergana, Andijan, Navoiy shaharlari bor. Men Samarqand ketdim. Men Samarqandda Registon, ..... madrasa ko'radim. Mening uy juda chiroyli. Men qadimiy Koreya ramzi Afrosiyob bordim. Qadimiy shaharlari ...men juda qiyin.*

Uch o'rinda *-ga* jo'nalish kelishigi tushirib qoldirilgan. Bir o'rinda hozirgi-kelasi zamon hamda o'tgan zamon ko'rsatkichlari birgalikda qo'llangan. Qolgan o'rinlarda o'tgan zamon qo'shimchasi hamda shaxs-son qo'shimchalari to'g'ri qo'llangan.

#### 10-respondent. **Mening oilam**

*Oilam 4 kishidan iborat: otam, onam, singlim va men. Biz Seul shahrida yashaymiz. Oilam juda .... va ahil. Otaning ismim – Pyon Min. u 89 yoshi. Onamning ismi –Kang In, u 87 yoshi. Singlim Chi Yun, boshlang'ich maktab o'qituvchisi. U juda aql singil. Mening ismim Chon Sangik. Men Koreyalikman. Men Koreya volontyori va mashina o'qituvchisiman.*

Berilgan javobda egalik qo'shimchalari to'g'ri qo'llangan, faqat bir o'rinda tushiri qoldirilgan, bir o'rinda ortiqcha foydalanilgan. *-da* kelishigi o'rnida *-i* egalik qo'shimchasidan foydalanilgan.

#### 11-respondent. **Milliy taomlar**

*O'zbek milliy taomlari juda ko'p. Hammasi milliy taomlariga ularning an'anasi xos xususiyati ifodalanadi. Lekin men palov, sho'rva, chuchvara, shashlik yedim. Ko'p narsalar hali yemaydim. O'zbek milliy taomlari menga biroz yog'li, tuzli, lekin qiziq va mazali. Bir vaqt, menga vaqtim bo'lsa, men norin va boshqa ovqatni yeb ko'rmoqchiman.*

Bir o'rinda *-si* egalik qo'shimchasi ortiqcha qo'llangan. *-ni* tushum kelishigi bir o'rinda tushirilgan. *Uchun* ko'makchisi hamda *-ning* qaratqich kelishigi o'rnida *-ga* kelishigi qo'llangan.

Respondentning bergan javoblari morfemani foydalangani/ foydalanmaganligi hamda morfemani to'g'ri/ noto'g'ri qo'llanganligiga ko'ra darajalandi. Bu darajani aniqlash uchun Spearman's rho koeffisientidan foydalanildi, ya'ni talab etilgan morfemadan foydalanilmagan bo'lsa, 0 ball; morfema mavjud, biroq noto'g'ri qo'llangan bo'lsa, 0,5 ball; morfema mavjud va u to'g'ri qo'llangan bo'lsa, 1 ball etib belgilandi. Ballar yig'ildi va morfemaning tarjimadagi umumiy soniga bo'lindi va 100 ga ko'paytirildi.

Tajribadan quyidagi natija olindi. Unga ko'ra, qo'shimchalar *-(i)m, -da, -lar, -ning, -a/y, -di, -dan, -ga, -man, -ni, -roq* shaklida tartiblandi. Aniqlangan tartib o'zlashtirish tartibi emas, balki aniqlik darajasi sifatida qabul qilinishi o'rinli, chunki tajriba ikki oylik o'zbek tilini intensiv o'qitish jarayoni natijasi orqali aniqlandi. Bunday tajribalar keyinroq ham shu respondentlar bilan davom ettiriladi hamda tajribalar natijasi o'zlashtirish tartibini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Brown, D. (1994). Principles of language learning and teaching. Eaglewood Cliffs, NJ: Prentice Hall Regents.
2. Ellis, R. (1994). The study of second language acquisition. Oxford, England: Oxford University Press.
3. Crystal, D. (1997). The Cambridge encyclopedia of language. New York, NY: Cambridge University Press.
4. Larsen-Freeman, D. (1976). An explanation for the morpheme acquisition order of second language learners. Language Learning. 26. P.125-134.

Абдиева С.М.....	146
28 Qo'shma gaplarda shakl va mazmun Ahmedova N.Sh.....	151
29 Краткий обзор по историю изучения терминов родства в узбекских и английских языках Каримова В.....	156
30 O'zbek adabiy tili uslublarining shakllanishi Vabaxanova D.A.....	163
31 Йўл мотиви ҳақида Қўчқаров О.....	169
32 Жаҳон тилшунослигида диний функционал услубнинг ўрганилиши Юсупова Ш.Т.....	173
33 Жек лондоннинг исёнчи асарларидаги воқеаликни тасвирлаш хусусиятлари Najmiddinov J, Bahodirov A.....	179
34 Johann Wolfgang Gytoring "Yosh Verterning iztiroblari" romanida poetonimlar talqini Vozorova R.Sh.....	182
35 "Алпомиш" библионими ва бош тимсол исми, лақаби хусусида Улуқов Н, Юнусова Б.....	186
36 Наманган қипчоқ шевалари ва этнослараро жараёнлар Дарвишов И.Ў.....	190
37 Grammatik ko'rsatkichlarning o'zlashtirilishida aniqlik darajasi (O'zbek tilini o'rganayotgan koreyslar misolida) Saidaxmedova O.I.....	197
38 Перевод понятий означающие национальных конвенций, традиций и обряд Самандаров . Ш.С.....	202
39 Принцип вежливости в речевом общении. Саидова М.Ш, Холматова Г.И.....	205
40 Адабиёт ва прагматика Раҳимов У.Э, Махаммаджлонов Н.Д.....	209
41 Хикматли сўзлар таржимасида қофияни сақлаш Абдуллажанов А, Мамадалиев Э.....	214

**ГЕОГРАФИЯ ФАНЛАРИ**  
**11.00.00 ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**GEOGRAPHICAL SCIENCES**

42 Фарғона водийси дарёлари оқимининг иқлим илишига реакцияси Солиев И.Р., Ғулломжонов Д.....	219
--	-----

**13.00.00 ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**  
**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**  
**PEDAGOGICAL SCIENCES**

43 Готовность будищих педогогов как основной фактор успешности инклюзивного образования Сатторов М, А.....	225
---	-----